



Kasb hunarga yo'naltirish orqali yoshlarni muvoffaqiyatga yetaklash

Badalova Feruza Kamol qizi

Buxoro viloyati Vobkent tumani

5-umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi

Annotatsiya: Mazkur maqolada bugungi kunning dolzarb muommolaridan biri bo'lmish kasb tanlashdagi qiyinchiliklar, ota-ona va farzand o'rtasida yuzaga keladigan ziddiyatlarning yechimlari, kasbiy shakllanish to'g'risidagi psixolog tavsiyalari, maslahatlari va atroflicha ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: oila, farzand, ota-ona, tarbiya, kasb-hunar, tanlov, ziddiyat.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim siyosatining muhim maqsadlaridan biri yosh avlodni har tomonlama barkamol insonlar qilib tarbiyalashdir. Albatta barkamol inson deganda ma'naviy jihatdan yetuk, o'z vatanining tarixi, buguni va kelajagi uchun qayg'uradigan, shuningdek jamiyatning iqtisodiy taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shish ishtiyoqida yonib yashaydigan shaxsni tushunish bugungi kun talabiga mos keladi. Aytish mumkinki, barkamol insonning shakllanishi uning munosib kasbni egallashi jamiyat taraqqiyoti uchun o'z xissasini qo'shib yashashi va shu orqali jamiyatda o'zligini ya'ni shaxs sifatida kamol topishi tushuniladi. Komillikning asosiy belgilaridan biri kasbiy shakllanishdir. Kasbiy shakllanish bu cheksiz, murakkab, orqaga qaytarilmaydigan muhim jarayon bo'lib, undan inson o'z manfaatlari yo'lida foydalanishi bugungi kunning eng dolzarb muommolaridan biridir. Har bir shaxs voyaga yetar ekan uning oldida ulkan bir



mas'uliyatli, g'oyat muhim bir vazifa turadi. Bu kelajakda kim bo'lsam ekan? yohud qaysi kasb egasi bo'lsam ekan? kabi jumboqli savollar turadi. Kasb tanlash bir qaraganda oddiy masala bo'lib ko'inishi mumkin. Aslida bu jarayon insonning butun bir hayotida muhim o'rin tutuvchi omildir. Maktab yoshidagi o'quvchilarni deyarli bir savol doim o'ylantiradi. "Kelajakda kim bo'lsam ekan?" O'quvchilar kasb tanlash chog'ida ko'plab qiyinchiliklarga duch kelishadi. Ushbu qiyinchiliklarni yengib o'tishida ularga tajribali shaxslar: ularning ustozlari, maktab pedagog psixologi, ota-onasi yoki yaqin tajribali shaxslar yordam bera oladilar. Shu o'rinda aytib o'tish joizki kasb tanlashda kerakli maslahat va tavsiyalarni eng to'g'risini maktab psixologi berishi mumkin. Chunki u o'quvchilarni qiziqish va qobiliyatlarini psixologik jixatdan tahlil qiladi va ularning layoqat va qobiliyatlarini oldindan psixologik jixatdan hisobga oladi.

Shu o'rinda ota-onalar ham farzandining taqdiriga mas'uliyat bilan yondoshmog'i zarur. Albatta ota-onalar farzandlarini kelajakda yuqori cho'qqilarni zabt etishini, ulkan zafarlarga erishishini, o'zidan yaxshi nom qoldirishini, o'zi ko'rmagan yaxshi kunlarni farzandi ko'rishini hoxlashadi. Lekin, aynan farzandingiz kasb tanlayotganda quyidagi maslahatlarimizga ham amal qilsangiz yaxshi natijalarga erishishingiz aniq.

- Ota-onalar odatda farzandi kasb tanlayotganda o'z nuqtai nazarini ustun qo'yadilar. Bu esa bevosita farzandingizda norozilik hissini keltirib chiqaradi. O'quvchilar doim o'zlari qiziqqan soha vakili bo'lishni xohlashadi. Va bunga astoydil intilishadi. Qadrli ota-onalar farzandingizga maslahat berayotganingizda uning qiziqish, qobiliyat va layoqatlarini e'tibordan chetda qoldirmang.

- Dunyoda 7 milliarddan ziyod odam bor va ular barchasi turli xil har biri o'zgacha bir dunyodirlar. Sizning farzandingiz ham nodir va takrorlanmas bir mo'jizadir. Garchi u sizning farzandingiz bo'lsada, u siz bilan bir xil emas. Uning o'ziga xos individual psixologik xususiyatlari mavjud. Qolaversa siz yashagan davr bilan hozirgi davrning



o'rtasida bir talay tafovut va farqlar bor. Siz ularni hisobga olishingiz va zamonga xos bo'lgan kasblar tipi bilan tanishib chiqishingiz kerak bo'ladi. Sizning tanlovingiz asosida kasb tanlashi kelajakda qachondir uning muvaffaqiyatsizlikka uchrashiga mustaqil qaror qabul qilish xususiyatini pasayishiga olib kelishi mumkin.

- Biz global zamonda yashayapmiz. Avvallari insonlar bitta kasb orqasidan yaxshi hayot kechirishgan bo'lsa Hozirgi davrda bir nechta kasb egasi bo'lmasdan yohud 3-5-yilda yangi malaka va bilim ko'nikmalar egallamasdan turib o'z tanlagan kasbining mohir ustasi bo'lib yetishishi qiyin.

- Farzandlarga o'zingizning yoki boshqa bir nufuzli insonlarning hayoti, uning mashaqqatlarni yenga olishi, tajribalari haqida ko'plab so'zlab bering. Tajribalaringizni farzandingiz bilan bo'lishing zero sizning tajribangiz farzandingiz uchun muhim ahamiyatga ega.

- Ota-onalarning egallagan kasblari farzandlar kasb tanlashi uchun misol tariqasida xizmat qilishi mumkin.har bir avlod o'zining mustaqil yo'li bo'lishi muhimligini unutmang. Farzandingiz o'z yo'lini to'g'ri tanlashiga ko'maklashing.

- Farzandingiz kasb tanlashida faqatgina moddiy boylikni asos qilib olishiga yo'l qo'ymang. Moddiylikka asoslangan hayot tarzi bir kun darz ketadi. Shuni unutmanki bu dunyoda inson ma'naviy jonzodddir. Ma'naviy muhit yaxshi bo'lgandagina ma'naviy qiyofasi to'g'ri shakllanadi.

- Farzandingiz kasb tanlashida kasbning obro'si, nufuziga, maoshiga e'tibor qaratmang, unutmang soha insonni rivojlantirmaydi, inson sohani rivojlantiradi, faqat u to'g'ri tanlangan soha bo'lsa bas.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, ota-onalar farzandlar yoshligida ularni mehnatga yo'naltirib to'g'ri ta'lim – tarbiya va kasb-korli qilishi farzandini kelajakda



hayotda o'z o'rnini topishiga balki ular qarigan chog'ida yoniga kirib ularni xizmatini chiroyli qilishiga sababchi bo'ladi. Xoh ular satarosh bo'lsin, xoh advokat bo'lsin xoh santexnik. O'z kasbining mohir ustasi oilasining moddiy tomonlama ta'minlashda mehnatdan qochmaydigan, komil inson bo'lib voyaga yetadi.

Ta'kidlab o'tganimdek uzoqni ko'zlab yaratilgan zaminlar umriboqiy zaminlardir. Bizni ham kasbni to'g'ri tanlashimiz hayotimizning umriboqiy zaminlarini yaratishimizga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Psixokorreksion trening mashg'ulotlar xulqi o'g'ishgan o'quvchilar bilan psixologik korreksion-rivojlantiruvchi treninglar/ A.Abdullayev Toshkent 2017
2. "Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari". Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi. Toshkent-2005
3. "Kasbiy yetuklik" ilmiy jurnali. 2020-yil
4. "Xadisi-sharif"
5. Internet manbalari: www.kutubxona.uz